

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart


RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 1321,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning o'sish sur'ati 119,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 488,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1321,8 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	1321,8	104,9
<i>shahar:</i>		
Namangan	639,7	108,9
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	46,8	102,2
Kosonsoy	64,5	100,6
Namangan	62,6	101,5
Norin	50,7	102,0
Pop	80,4	100,8
To'raqo'rg'on	71,0	102,2
Uychi	59,6	100,3
Uchqo'rg'on	55,9	100,4
Chortoq	55,0	100,1
Chust	68,2	102,2
Yangiqo'rg'on	67,4	102,4

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Namangan shahri (639,7 mlrd.so'm), Pop (80,4 mlrd.so'm), To'raqo'rg'on (71,0 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mingbuloq (46,8 mlrd.so'm), Norin (50,7 mlrd.so'm), Chortoq (55,0 mlrd.so'm) tumanlariga kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Namangan shahri (48,4 %), Pop (6,1 %), To'raqo'rg'on (5,4 %), Chust (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 488,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida - 1064,1 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Chust tumanida kuzatildi - 266,9 ming so'm, o'sish sur'ati esa 100,6 % ni tashkil etdi. Bu maskur tumanda aholi ko'pligi bilan izohlanadi.


Taqqoslash uchun, Mingbuloq tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 387,1 ming so'mga teng. Biroq, ushbu tumanda aholi soni Chust tumanining aholisiga nisbatan 2,1 marta kamdir.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,9 %), moliyaviy xizmatlar (117,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (114,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,3 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (37,5 %), transport xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (8,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,7 %), ta'lim xizmatlari (3,4 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (3,1 %) tashkil etadi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28